Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 94

# 1920-YILLARNING IKKINCHI YARMIDA SOVET AGRAR SIYOSATINING QATAG‘ONCHI MOHIYATI: MUSODARA VA TAQSIMOT (HOZIRGI QUVASOY HUDUDI MISOLIDA)

Sarvar Fayzillayevich Karimov*
*Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti*
✉ karimov.sarvar.fayzullayevich@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada 1920-yillarning ikkinchi yarmida (1925–1929-yillar) Farg‘ona vodiysida, xususan, hozirgi Quvasoy shahri va unga yondosh qishloq jamoalari (tarixiy Marg‘ilon uezdining Qo‘qon-Qishloq va Uchqo‘rg‘on volostlari) doirasida o‘tkazilgan sovet yer-suv islohotining ma’muriy-tashkiliy mexanizmlari, qatag‘onchi xarakteri hamda ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari tahlil etilgan. Birlamchi arxiv fondlari materiallaridan foydalangan holda yirik yer egaligi deb topilgan xo‘jaliklarni tugatish amaliyoti, yer, ishchi hayvonlar va qishloq xo‘jalik inventarlarini musodara qilish ko‘lami o‘rganilgan. Shuningdek, dehqon xotin-qizlariga yer ajratish natijalari, berilgan yerlarning meliorativ nochorligi, yerlarni yashirish va poraxo‘rlik holatlari, ochiq ko‘rgazmali sudlar, dehqonlarning norozilikiari hamda 1928–1929-yillardagi ma’muriy surgun va majburiy kolxozlashtirish jarayonlari manbalar asosida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar**

Farg‘ona vodiysi, Quvasoy, Marg‘ilon uezdi, yer-suv islohoti, musodara, pomeshchik xo‘jaliklari, chorikorlik, quloqlashtirish, qatag‘on, arxiv manbalari.

DOI: 10.5281/zenodo.23279305

## KIRISH

O‘zbekistonda sovet hokimiyati tomonidan o‘tkazilgan agrar o‘zgarishlarning eng muhim bosqichi bo‘lgan yer-suv islohoti 1925–1926-yillarni qamrab oldi. Ushbu bosqichda islohot dastlab respublikaning qishloq xo‘jaligi yuksak rivojlangan uchta markaziy viloyatida — Farg‘ona, Samarqand va Toshkent viloyatlarida hayotga tatbiq etildi. Amaliy tadbirlarga 1925-yil dekabr oyi o‘rtalaridan kirishilib, 1925-yil 12-dekabrda Farg‘ona viloyati ijroiya komiteti yer-suv islohoti bo‘yicha ishlarni rasman boshlash to‘g‘risida maxsus qaror qabul qildi [1: 16; 2: 159; 3: 139].

Farg‘ona vodiysi o‘zining zich joylashgan dehqon aholisi, qulay iqlimi va strategik paxtachilik xomashyosi bazasi ekanligi sababli sovet agrar siyosatida markaziy o‘rinni egalladi. Bolsheviklar hukumati ushbu islohot vositasida qishloq xo‘jaligida asrlar mobaynida shakllangan an’anaviy xususiy mulkchilik, ijaradorlik va chorikorlik munosabatlariga sinfiy kurash tamoyillari orqali zarba berishni, qishloq mulkdorlari tabaqasini iqtisodiy jihatdan zaiflashtirishni hamda barcha yer-suv resurslari ustidan to‘liq davlat nazoratini o‘rnatishni bosh maqsad qilib qo‘ydi [1: 16; 2: 159; 8: 19–21].

Biroq sovet davri adabiyotlarida «kambag‘allarga yer berish va tenglik o‘rnatish» shiori ostida biryoqlama talqin qilib kelingan ushbu siyosat amalda chuqur ijtimoiy ziddiyatlar, keng ko‘lamli musodara va ma’muriy zo‘ravonlik bilan kechdi [1: 16–17; 14: 32–41]. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysining eng muhim agrar hududlaridan biri bo‘lgan Marg‘ilon uezdining Qo‘qon-Qishloq va Uchqo‘rg‘on volostlari — hozirgi Quvasoy shahri va unga yondosh qishloq jamoalari hududida bu jarayon o‘ta murakkab va keskin tus oldi [4: 42, 63–149; 6: 1–4; 7: 61–74].

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi arxiv fondlarida saqlanayotgan birlamchi hujjatlar asosida 1925–1929-yillarda Farg‘ona vodiysida, xususan, hozirgi Quvasoy hududi misolida sovet agrar siyosatining qatag‘onchi mohiyati, tashkiliy boshqaruv tuzilmasi, musodara va taqsimot ko‘lami, ijtimoiy qatlamlarning munosabati hamda yakuniy siyosiy-iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR.** Tadqiqotning manbaviy asosini O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi (O‘z MA, R-86-fond — O‘zSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi fondi) [3], Farg‘ona viloyati davlat arxividagi (FVDA) quyidagi muhim fondlar:

- 30-fond (Yer tuzish va qishloq xo‘jaligi tashkilotlari hujjatlari) [7];
- 34-fond (Farg‘ona viloyati Yer-suv komissiyasi hujjatlari) [4];
- 121-fond (Farg‘ona viloyati ijroiya qo‘mitasi hujjatlari) [6];
- 127-fond (Marg‘ilon uezd ijroiya qo‘mitasi va uezd yer bo‘limi hujjatlari) [5];
- 170-fond (Farg‘ona okrug yer bo‘limi, ma’muriy va nazorat idoralari hujjatlari) [8];
- 324-fond (Farg‘ona viloyati Yer-suv komissiyasining buyruqlari va operativ yozishmalari) [9];
- Andijon viloyati davlat arxividagi (AVDA) 708-fond (Professor I.G.Alimov shaxsiy fondi) [10] birlamchi hujjatlari tashkil etadi.

Shuningdek, tadqiqotda 1920-yillardagi rasmiy nashrlar («Pravda Vostoka» gazetasi, O‘zSSR Narkomzem hisobotlari) [13; 14; 15] hamda zamonaviy va sovet davri tarixshunosligi tadqiqotlaridan keng foydalanildi [1; 11; 16; 17].

Tadqiqot jarayonida tarixiylik, xolislik, retrospektiv va qiyosiy-tarixiy tahlil usullari qo‘llanildi. Birlamchi manbalardagi dastlabki rejalar, qishloqma-qishloq tuzilgan ro‘yxatlar, yer o‘lchash daftarlari, musodara bayonnomalari va operativ xizmat yozishmalari tanqidiy qiyoslanib, jarayonning asl ko‘lami baholandi.

## NATIJALAR.

### 1. Tashkiliy jarayonlar, rayonlashtirish va kadrlar ta’minoti

Farg‘ona viloyatida yer-suv islohotini amalga oshirishda hududlarni ustuvorlik asosida tanlash amaliyoti joriy etildi. Dastlabki tayyorgarlik va sinov bosqichida islohotni birinchi navbatda o‘tkazish belgilangan qishloqlar ro‘yxati shakllantirildi. Unga muvofiq, Marg‘ilon uezdida Asaka tumani (Asaka qishlog‘i), Yozyovon tumani (Jo‘ybozor qishlog‘i), Marg‘ilon tumani (Avval-o‘zbek qishlog‘i) hamda Quva tumani (Qo‘qon-Qishloq volostining barcha hududi) ustuvor tartibda qamrab olindi [4: 42].

1925-yil 9-dekabrda Farg‘ona viloyati Yer-suv komissiyasining 1-sonli buyrug‘i qabul qilindi [6: 1–4]. Mazkur buyruqqa asosan, 1925-yil 12-dekabrdan boshlab yer islohoti to‘g‘risidagi dekretni joylarda hayotga tatbiq etish ishlari boshlanishi munosabati bilan, Farg‘ona viloyati ijroiya qo‘mitasining №297-sonli buyrug‘i bilan safarbar etilgan xodimlarga 10-dekabrdan kechikmasdan uezd Yer-suv komissiyalaridan zarur materiallar va yo‘riqnomalarni olgan holda ish joylariga yetib borishi vazifasi yuklatildi. Viloyat bo‘yicha Qo‘qon, Namangan, Marg‘ilon va Andijon uezdlarining volostlari 32 ta hududga bo‘linib (har biriga 3 nafardan) hamda Konibodom tumaniga 5 nafar, jami 101 nafar mas’ul xodimdan (komissiya raisi, a’zo va kotib) iborat 33 ta yer-suv komissiyasi tuzildi [6: 1–4].

Marg‘ilon uezdiga qarashli volostlar 7 ta hududga ajratilib, 21 nafar komissiya a’zosi biriktirildi. Hozirgi Quvasoy hududlariga qarashli bo‘lgan qishloqlarni boshqarish uchun quyidagi shaxslar tayinlandi [6: 4]:

- **Qo‘qon-Qishloq volostiga** — Isroil Alixo‘jayev, Serpkov, Urumboevlar;
- **Uchqo‘rg‘on volostiga** — Isametdinov, O‘rmonov, Zayniddinovlar.

Ushbu komissiyalarga yerlarni musodara qilish, qisqartirish, qayta taqsimlash va yangi xo‘jaliklarga yer hamda inventar ajratish kabi asosiy vazifalar yuklatilib, yo‘riqnomada ko‘rsatilgan ishlarni 1926-yil 12-yanvardan kechiktirmasdan yakunlash talab etildi.

Kadrlarni tayinlashda ularning shaxsiy, kasbiy va siyosiy jihatdan tekshiruvdan o‘tkazilgani kuzatiladi. Masalan, Marg‘ilon uezdi yer bo‘limi rahbari Asametdinov faoliyati tahlilida uning asosan ijrochilik funksiyalarini bajarish qobiliyati borligi, biroq mustaqil tashabbus ko‘rsatish va tashkiliy boshqaruvda sustligi, siyosiy tayyorgarligi pastligi, ish yuritishida tizimli kamchiliklar mavjudligi ta’kidlangan. Hujjatda u mustaqil rahbar emas, balki o‘rinbosarlik darajasida samaraliroq ishlashi mumkinligi qayd etilgan [5: 53].

1925-yil 16-dekabrda qabul qilingan Farg‘ona viloyati Yer-suv komissiyasining 3-sonli buyrug‘i ma’muriy-nazorat va intizomiy mexanizmlarni yanada kuchaytirdi. Unda hisobot va ma’lumotlarni o‘z vaqtida taqdim etmaslik islohotni izdan chiqarish deb baholanishi va qat’iy jazo, hattoki sudga berish choralari belgilandi. Shuningdek, Buxoro partiyasidan kelgan yer o‘lchovchilarni zudlik bilan uezd komissiyalariga taqsimlash va joylarga yuborish ko‘zda tutildi [9: 2].

1925-yil 31-dekabrda tasdiqlangan «Yer islohotiga ko‘maklashuvchi qishloq komissiyalari to‘g‘risida»gi nizomga muvofiq, har bir qishloqda 7–9 nafardan, yirik jamoalarda 13–17 nafargacha bo‘lgan jamoatchilik organlari tuzildi. Ularning tarkibida «Qo‘shchi» uyushmasi, partiya va qishloq kengashi vakillari uchdan bir qismdan oshmasligi shart qilib qo‘yildi. Ushbu komissiyalar boy xo‘jaliklarini aniqlash, yashirilgan yer va inventarlarni fosh etish, sun’iy bo‘linishlarning oldini olish hamda targ‘ibot ishlarini olib bordilar. 1925-yil 25-dekabrda Marg‘ilon uezd-shahar ijroiya qo‘mitasi 192-sonli buyruq qabul qilib, barcha sovet va xo‘jalik organlariga yer komissiyalari talablarini navbatsiz va so‘zsiz bajarishni buyurdi [5: 16–17].

## 2. Normativ me’yorlar va yirik yer egaliklarining tugatilishi

Farg‘ona viloyatida yer-suv islohoti doirasida yirik yer egaliklarini tugatish maxsus yo‘riqnoma asosida amalga oshirildi. Unga ko‘ra, kamida 40 desyatina sug‘oriladigan yerga ega bo‘lgan xo‘jaliklar «pomeshchik xo‘jaliklari» deb tasniflandi va ularni tugatish bosh vazifa etib belgilandi. Ushbu jarayonda bog‘ va tokzorlar, uy-joy va ayrim turdagi chorva mollari egalariga qoldirildi, asosiy ekin yerlari va ishlab chiqarish vositalari esa musodara qilindi [8: 19–21].

1925-yil 15-dekabrdagi 2-sonli buyruqda 40 desyatinadan ortiq yerga ega bo‘lgan pomeshchik xo‘jaliklarini tugatish asosan yakunlangani qayd etilgan bo‘lsa-da, yer va inventarni yashirish holatlari ko‘paygani sababli qayta tekshiruvlar va qidiruv tadbirlari boshlandi [5: 187; 6: 5]. 7 desyatinadan ortiq yerga ega bo‘lgan badavlat xo‘jaliklardan esa me’yordan ortiq yer, ishchi qoramol va inventarlar tortib olindi. Ushbu musodara qilingan yerlar, madaniy vaqf yerlari va savdogarlarning yerlari hisobidan davlat yer fondi shakllantirildi [2: 159].

O‘zSSR MIQ huzuridagi Yer islohotini o‘tkazish bo‘yicha Markaziy komissiya rayosatining 1925-yil 17-dekabrdagi 4-sonli bayonnomasi hamda 23-dekabrdagi №510/1515-sonli qarori bilan Farg‘ona viloyati va Marg‘ilon uezdi bo‘yicha yagona yer me’yorlari tasdiqlandi [4: 70; 8: 66–68]:

| Volost nomi | Yer ajratish me’yori (tanapda) | Yer ajratish me’yori (desyatinada) | Yerni saqlab qolish me’yori (desyatinada) |
|---|---|---|---|
| Avval | 18–30 | 3 | 6–7 |
| Qo‘qon-Qishloq | 21–24 | 3 | 6–7 |
| Quva | 18 | 3 | 6 |
| Uchqo‘rg‘on | 18–21 | 4 | 7–8 |

Yo‘riqnomada Farg‘ona sharoitida chorikorlar ishlayotgan maydonlar ko‘p hollarda 5–6 tanobdan oshmasligi inobatga olinib, zaxira hisobidan ularning yer ulushini kamida 2 yoki 2,5 desyatinaga yetkazish belgilangan [8: 66–68].

## 3. Hozirgi Quvasoy hududidagi qishloqlarda musodara va taqsimot ko‘lami

Uchqo‘rg‘on volostining Muyan qishloq jamoasi bo‘yicha saqlangan arxiv hujjatlari musodara va taqsimot mexanizmining real ko‘lamini ko‘rsatadi [7: 61–74]:

- **Qodirali Abdusattorov xo‘jaligi (Muyan):** 1925-yil 9-dekabrda o‘tkazilgan tekshiruvda yerini o‘zi ishlamay, chorikorlar mehnatidan foydalangani («ekspluatatsiya») uchun 150 tanob yeri musodara qilindi [7: 70]. 1925-yil 25-dekabrdagi №27-sonli qaror bilan uning 455 tanob yeri (Muyanda 425 tanob, boshqa jamoada 30 tanob), 2 juft ho‘kizi, 18 pud makkajo‘xorisi, 2 pud kunjarasi, 800 bog‘ pichani, 1 ta egari, 4–5 ta aravasi va 1 ta juvozi musodara

etildi. Ushbu yerdan atigi 96 tanobi uning 7 nafar chorikoriga (Badaliboy Irmatovga 12 tanob, Yunusali Mamarasulovga 10 tanob, Turg‘un Yo‘ldoshevga 17 tanob, Ismatali G‘aybnazarovga 16 tanob, Mamajon Sharipovga 13 tanob, Abdulhamid Safutdinovga 19 tanob, Mamadrajab Mamasoiqovga 10 tanob) taqsimlandi. Qolgan 329 tanob (Muyanda) va 30 tanob (boshqa jamoada) yer to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat zaxira fondiga o‘tkazildi [7: 72].

- **Turg‘un Faxriddinov xo‘jaligi (Muyan):** 1925-yil 22-dekabrdagi №16-sonli qaror bilan 471 tanob yeri va anjomlari musodara qilindi [7: 66]. 25-dekabrdagi №28-sonli qarorga muvofiq, uning Muyandagi 471 tanob va Uchqo‘rg‘ondagi 180 tanob yeridan faqat 27 tanobi 3 nafar chorikorga berilib, qolgan 444 tanob yer zaxira fondiga olindi [7: 73–74].
- **Abdurahmon Abduqosimov xo‘jaligi:** 290 tanob yer (200 tanobi Uchqo‘rg‘onda, 80 tanobi Muyanda, 10 tanobi Ichkilikda) va barcha anjomlari to‘liq musodara qilindi [7: 69].
- **Abdirahim G‘iyosxo‘jayev xo‘jaligi:** 1925-yil 26-dekabrdagi №31-sonli qaror bilan uning 300 tanob yeri va 2 juft ho‘kizi musodara qilinib, chorikori Abdurasul Madmarovga 17 tanob yer berildi, qolgan 283 tanobi zaxiraga o‘tkazildi [7: 61].
- **Xudoyorjon Dadaboyev xo‘jaligi:** 1925-yil 26-dekabrdagi №30-sonli qaror bilan 600 tanob yer, 1 ta omoch, 2 ta arava, 2 ta ot, 2 juft ho‘kiz, 2 ta xomut, 6 arava somon, 3 pud makkajo‘xori, 900 bog‘ pichan, 300 bog‘ poya, 100 bog‘ beda va 1 ta tegirmon olib qo‘yildi. 105 tanob yer 5 nafar chorikorga berilib, 495 tanob yer zaxiraga olindi [7: 64].

Qo‘qon-Qishloq va Uchqo‘rg‘on volostlarida yer olgan yangi xo‘jaliklar quyidagicha qayd etildi [4: 63–149]:

- Sufon qishlog‘ida 21 nafar fuqaroga 165,5 tanob (umumiy yer 362 tanobga yetdi) [4: 63–64];
- Qashqar qishlog‘ida 48 nafarga 311,5 tanob (umumiy yer 744,5 tanob) [4: 65–67];
- Yuqori Valikda 37 nafarga 236 tanob (umumiy yer 631 tanob) [4: 68–70];
- Qal’achada 39 nafarga 126 tanob (umumiy yer 595 tanob) [4: 123–125];
- Muyan qishlog‘ida 159 nafarga 889 tanob (umumiy yer 2572,5 tanob) [4: 142–147];
- Lashkar qishlog‘ida 31 nafarga 380 tanob (umumiy yer 669,5 tanob) berildi [4: 148–149].
- Uchqo‘rg‘on volostining Muyan qishloq jamoasida jami 296 nafar chorikor, kam yerli va yersiz fuqarolarga yer ajratilib, yangi xo‘jaliklar tashkil etildi [7: 248–295].

Biroq ajratilgan yerlarning unumsizligi, to‘qayzor, qamishzor va suv ta’minoti o‘ta og‘ir qaqir joylardan iborat bo‘lgani hujjatlarda ta’kidlangan. Dehqonlarga moliyaviy badallar yuklanib, shirkatlar foydasiga Sufonda 2 040 rubl, Qashqarda 4 360 rubl, Muyanda 7 990 rubl to‘lov undirilgan [4: 63–149].

1926-yil 30-yanvardagi №4/77-sonli ko‘rsatma asosida dehqon ayollarni yer bilan ta’minlash natijalari alohida hisobga olindi [4: 133]. Marg‘ilon uezdida 222 ta, Konibodomda 17 ta, Qo‘qonda 4 ta, Andijonda 70 ta, Namanganda 4 ta (jami 317 ta yakka ayol xo‘jaligi) hamda 10 ta ayollar arteli shakllantirildi [4: 279]. Muyan qishlog‘ida yashovchi, 3 jon oilada yagona mehnatga layoqatli bo‘lgan beva ayol Rayabarbibi Alixonovaga 15 tanob, Ro‘ziyabibi Mahamadovaga 3 tanob, Fayziborbibi Xoliqovaga 15 tanob, Shodmonbibi Mulla Yunusovaga 12 tanob yer ajratildi. Bu jarayon faqat ijtimoiy tenglik shiori emas, balki boquvchisini yo‘qotgan oilalarning og‘ir iqtisodiy sharoitda kun kechirishi uchun majburiy zarurat edi [4: 258].

**MUHOKAMA.** 1926-yil 1-fevralda Farg‘ona viloyatida yer-suv islohoti rasman yakunlandi [1: 17; 14: 32]. Viloyat bo‘yicha 365 ta pomeshchik xo‘jaligining 24 645,22 desyatina yeri taqsimlash fondiga olindi. Dastlab 155 ta xo‘jalikni tugatish ko‘zda tutilgan bo‘lsa-da, 1926-yil 15-yanvarga kelib bu ko‘rsatkich 575 taga. Bu raqamlar islohotning rejani sun’iy ravishda oshirib bajarish poygasiga aylanganini va ko‘plab o‘rtahol dehqonlarning ham asossiz musodara qilinganini ko‘rsatadi [1: 16; 5: 187; 16: 333].

Natijada bir qator tizimli ijtimoiy va iqtisodiy muammolar yuzaga keldi:

***Iqtisodiy qiyinchiliklar va yerdan voz kechish:** Ajratilgan yerlarning unumsizligi, mehnat qurollari va ozuqa yo‘qligi tufayli Farg‘ona viloyatida yer olgan dehqonlarning salkam 5 foizi umuman ekin eka olmadi. Ayrim kambag‘allar olingan yerni qayta ijaraga berishga majbur bo‘ldi [1: 18; 15: 468–469]. Bir qator dehqonlar esa shariat qoidalariga rioya qilib, «egasining roziligisiz tortib olingan mulk buyurmaydi» degan aqida bilan yerdan ixtiyoriy ravishda voz kechdilar [1: 18]. Paxtachilikning yuqori mehnat talabi tufayli chorikorlik amalda to‘xtamadi [2: 166].

***Yerlarni yashirish va ma’muriy o‘zboshimchalik:** Keng ko‘lamli taqiblar sharoitida boylar o‘z mulkini yashirishga urindi [11: 10]. Log‘on qishlog‘ida boy Sharopboybacha tuman ijroiya qo‘mitasi raisi Y.Yusupovga 100 rubl, 1 ta qo‘y va chopon, kotib M.Matiboyevga 1 ta qo‘y, 10 pud bug‘doy va 50 rubl pora berib, 160 tanob yerini yashirgan va chorikorlari orqali foydalanishda davom etgan [8: 29]. Shu qishloqda yashovchi Sharab Bo‘yev ham 200 tanob yerini yashirib, chorikorlar vositasida ishlatib kelgan [8: 146–147]. GPU ma’lumotlariga ko‘ra, chorikor Umurzoq Mamarzayevga Uchqo‘rg‘onda 15 tanob yer berilgan bo‘lsa-da, u sobiq qo‘rboshi Tishaboy Oxunboyevdan qo‘rqqanidan unga yana

chorikorlik qilishga majbur bo‘lgan [8: 29]. Shu sababli Farg‘ona viloyat partiya qo‘mitasi 1926-yil 2-yanvarda ochiq sudlar o‘tkazish to‘g‘risida qaror chiqardi [1: 16; 5: 77]. 1927-yil 25-avgustdagi №503s va 25-noyabrdagi №17s-sonli maxfiy ko‘rsatmalar bilan yashirilgan yerlarni yer-suv sudlari orqali musodara qilish choralari belgilandi [8: 18].

***Qarshilik harakatlari:** Islohot doirasida vaqf yerlarining yo‘qotilishi dindor qatlamlarning noroziligini kuchaytirdi [1: 18]. Boylar va sobiq yer egalari tomonidan faollarga suiqasdlar uyushtirildi, jumladan, Marg‘ilon uezdida yer-suv komissiyasi a’zosi Mamatqul hoji Abdulquliyev o‘ldirildi [5: 45].

***1928–1929-yillardagi deportatsiya va majburiy kolxozlashtirish:** 1927-yil oxiriga kelib boylar o‘z yerlarini qaytarib olish uchun faollashgach [12: 42], sovet hukumati 1928-yil 18-oktyabrda «1925–1927-yillardagi yer-suv islohoti jarayonida tugatilgan pomeshchik xo‘jaliklari egalarini ko‘chirish to‘g‘risida» dekret qabul qildi [12: 42]. Unga ko‘ra, 122 ta sobiq xo‘jalik egasidan 60 tasi o‘z tumanidan tashqariga, 62 tasi esa butunlay O‘zbekiston hududidan tashqariga surgun qilindi [1: 19]. 1928-yil 22-dekabrdagi qaror natijasida 1929-yil 16-aprelgacha Andijon okrugida 3 655 ta, Qo‘qon okrugida 447 ta, Farg‘ona okrugida 1 867 ta xo‘jalik qo‘shimcha ravishda tugatildi yoki yerlari kesib olindi [1: 19; 3: 142–144; 10: 3–4]. Ushbu yerlar muhtoj dehqonlarga berilmasdan, tezkorlik bilan tuzilgan kolxozlarga biriktirildi (masalan, Andijon okrugida 12 kun ichida 197 ta kolxoz tashkil etilgan) [1: 19; 13: 1].

**XULOSA.** 1925–1929-yillarda Farg‘ona vodiysida, xususan, hozirgi Quvasoy hududida amalga oshirilgan sovet agrar siyosati quyidagi xulosalarni beradi:

- Islohot o‘z mohiyatiga ko‘ra shunchaki agrar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish emas, balki qishloqdagi xususiy mulk egalarini sinf sifatida tugatishga qaratilgan ma’muriy-siyosiy qatag‘on jarayoni bo‘ldi.
- «Rejani oshirib bajarish» kampaniyabozligi natijasida ko‘plab o‘rtahol dehqonlar asossiz jazolandi, ularning mehnat qurollari va chorvalari musodara qilindi.
- Muyan va boshqa qishloqlari misolida ko‘ringanidek, musodara etilgan yerlarning asosiy qismi dehqonlarga emas, balki davlat zaxira fondlariga o‘tkazildi.
- Ajratilgan yerlarning unumsizligi va texnika yetishmasligi kambag‘al qatlamlarning iqtisodiy ahvolini tubdan yaxshilamadi, aksincha, ularni 1929-yildan boshlangan majburiy yalpi kolxozlashtirishga qaram qilib qo‘ydi. 1928–1929-yillardagi surgunlar esa 1930-yillardagi fojiali ommaviy qatag‘onlarning debochasi bo‘lib xizmat qildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR


1. Asqarov M.E. O‘zbekistonda yer-suv islohotining o‘tkazilishi va uning oqibatlari (1925–1929-yillar). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Farg‘ona, 2023. – B. 16–19.
2. Е.Зелькина. Земельная реформа Средней Азии. - Москва С. 159–166.
3. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA), R-86-fond, 1-ro‘yxat, 3093-ish, 105–106, 139-varaqlar; 4631-ish, 142–144-varaqlar.
4. Farg‘ona viloyati davlat arxivi (FVDA), 34-fond, 1-ro‘yxat, 19-ish, 133-varaq; 31-ish, 42-varaq; 86-ish, 63–149-varaqlar; 91-ish, 258, 279-varaqlar; 94-ish, 70-varaq.
5. FVDA, 127-fond, 1-ro‘yxat, 4a-ish, 53-varaq; 112-ish, 45, 77-varaqlar; 461-ish, 187-varaq; 703-ish, 16–17-varaqlar; 707-ish; 831-ish.
6. FVDA, 121-fond, 1-ro‘yxat, 248-ish, 1–5-varaqlar.
7. FVDA, 30-fond, 1-ro‘yxat, 28-ish, 61–74, 248–295-varaqlar.
8. FVDA, 170-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish, 19–68-varaqlar; 10-ish, 146–147-varaqlar; 13-ish, 29-varaq; 15-ish, 18-varaq; 33-ish, 6-varaq.
9. FVDA, 324-fond, 1-ro‘yxat, 378-ish, 2-varaq.
10. Andijon viloyati davlat arxivi (AVDA), 708-fond, 1-ro‘yxat, 17-ish, 3–4-varaqlar.
11. Кунакова Л.З. Коммунистическая партия Узбекистана в борьбе за проведение земельно-водной реформы в Ферганской долине (1925 -1926 гг.). Автореферат диссертации. – Москва, 1953. – С. 10.
12. Кунакова Л.З. Земельно-водной реформы в Узбекистане (1925-1929 гг.). Автореферат диссертации. – Москва, 1970. – С. 32–42.
13. «Pravda Vostoka» gazetasi, 1928-yil 20-oktyabr; 1928-yil 20-dekabr; 1929-yil 16-aprel sonlari.
14. Отчет по проведению земельно-водной реформы в областях Самаркандской, Ферганской и Ташкентской УзССР. – Самарканд: Изд. Наркомзем УзССР, 1928. – С. 32–41.
15. Советская деревня глазами ВЧК-ОГПУ-НКВД. 1918 – 1939. Документы и материалы. В 4-х томах. Том. 2. 1923-1929. / Под ред. А.Береловича, В.Данилова. – Москва: РОССПЭН, 2000. – С. 468-469.
16. O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 333.
17. Шамситдинов Р.Р. Советы в проведении земельно-водной реформы в Ферганской области 1925-1927 гг. Автореферат диссертации.– Москва, 1993. – С. 17.